



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

ajdodlarimiz tarixiy-ma'naviy taraqqiyot davomida to'plagan o'z tafakkur boyliklari, an'ana va urf-odatlaridagi ijobiy xislatlarning barisini ushbu tinchlikparvar din tarkibiga singdirib yubordiki, bugungi kunda biz e'tiqod qiladigan ma'rifiy islom o'zida ko'proq xalqchil jihatlarni mujassam etib, unda milliy mentalitetimizning ijobiy qirralari singdirilganligi bilan e'tiborlidir. Shu bois, yoshlarda o'zlikni anglashni rivojlantirish orqali, ularda birlik, hamjihatlik, elparvarlik va vatanparvarlik xislatlarini yuksaltirishda ushbu omildan ham foydalana bilishimiz lozim.

Tarixiy qadriyatlar sarchashmalari bo'lgan O'rxun yozma yodgorliklarida ajdodlarimizga xos bo'lgan mardlik, tantilik, birlik va vatanparvarlikning aks etishi hamda bugungi kunda ularni talqin etib, targ'ib qilish milliy qadriyatlarimiz rivojini ta'minlash bilan bir qatorda jamiyatimiz a'zolari, xususan yoshlar tafakkurida vatanga va elga muhabbat hissining rivojini yuksaltirib boradiki, bugungi yangilanishlar sharoitida o'zlikni anglab, vatanparvarlik va el birligini yanada ta'minlab borishda ushbu omil muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Joldasbekov M., Sartkojaulı K. Atlas Orxonskix pamyatnikov. – Astana: Kultegin, 2006. – S. 8-9.
2. Tursunov Ye.D. Drevnetyurkskiy folklor: istoki i stanovleniye. – Almaty: «Dayk-Press», 2001. – S. 8.
3. Batmanov I.A. Yazyk yeniseyskix pamyatnikov drevnetyurkskoy pismennosti. – Frunze: Izd-vo AN Kirgizskoy SSR, 1959. – S. 10.
4. Radlov V.V., Melioranskiy P.M. Drevne-tyurkskiye pamyatniki Kosho-Saydam . – Sankt-Peterburg': Tipografiya imperatorskoy Akademii Nauk, 1897. – S. 23.
5. Narod v potoke istorii. Nauchnaya seriya /Sostaviteli T.Shanbay, A.Ibrayeva. – Astana: Folliant, 2014. – S. 63-64.
6. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – Toshkent: «Sharq», 1998. – B. 9.

IJTIMOIIY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna
Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti Universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası v.b dotsenti ,
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PHD)
kamolaabdurazakova6@gmail.com
Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/WNRH6517

Annotatsiya. Bugungi kundagi globaloballashuv davrida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning ichki siyosatida o'z jamiyati uchun ijtimoiy siyosatni to'liq davr talabiga moslashtirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan islohotlar talaygina. Bu doirada O'zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan islohotlar ham aynan xalqaro xuquqiy me'yorlar asosida amalga oshmoqda. Ushbu maqolada “Ijtimoiy siyosat” nima ekanligi, uning zamirida qanday tushunchalar mavjudligini haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Siyosat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, globallashuv, davlat boshqaruvi, jamiyat, ijtimoiy islohotlar.*

Annotation. In today's era of globalization, both developed and developing countries are implementing numerous reforms in their domestic policies aimed at adapting social policy to the requirements of the modern era and improving the living standards of the population. In this regard, the reforms initiated by Uzbekistan are also being carried out in accordance with international legal norms. This article discusses what “social policy” is and the concepts underlying it.

Key words: *Politics, social policy, social protection, globalization, state governance, society, social reforms.*

Asosiy matn. Siyosat — davlatni boshqarish san'ati bo'lib, turli ijtimoiy-siyosiy sinflar, jamiyat qatlamlari hamda guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog'liqdir. Siyosatning mohiyati davlat hokimiyatini amalga oshirish va uni boshqarish jarayonidan iboratdir. Jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyatining ichki va tashqi faoliyati siyosiy tashkilotlar hamda ularning faoliyati orqali ifodalanib, hokimiyatni boshqarishda siyosiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishni aks ettiradi.

Siyosat ta'sir doirasi ichki va tashqi siyosat yo'nalishlariga bo'linadi. Shuningdek, siyosat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy-texnik, ekologik, madaniy, harbiy va boshqa sohalarini qamrab oladi hamda iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, demografik siyosat, ekologik siyosat, madaniy siyosat, harbiy siyosat kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Ushbu yo'nalishlar orasida ijtimoiy siyosat alohida o'rin tutadi. Ijtimoiy siyosat jamiyatda moddiy va ma'naviy farovonlikni oshirish, ijtimoiy adolatni rivojlantirish va mustahkamlashni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda jamiyatni yangilangan ijtimoiy siyosat asosida uzoq muddatli, puxta o'ylangan va adolatli siyosat yuritishni maqsad qilgan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda ko'plab davlatlarda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ikki asosiy yo'nalish — ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot tizimlariga tayaniladi. Jahonda kechayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlari hamda aholining ehtiyojlari o'zgarishi ushbu tizimlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Ijtimoiy himoya — aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, unda iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy hamda ma'naviy jihatlar o'zaro uyg'unlashgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida shakllangan ushbu tizim so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida yanada takomillashib, aholining real ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda manzilli yordam ko'rsatishga yo'naltirilmoqda.

Yoshi, sog'lig'i, ijtimoiy holati yoki moddiy imkoniyatlari yetarli bo'lmagan sababli yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bugungi kunda yanada tizimli shaklga ega bo'lgan. Masalan, O'zbekistonda joriy etilgan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" orqali ehtiyojmand oilalar aniq aniqlanib, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy siyosat endilikda faqat moddiy yordam bilan cheklanib qolmay, balki insonning munosib hayot kechirishini ta'minlash, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, mehnat bozorida o'z o'rnini topish hamda o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishga qaratilmoqda. Bu jarayonda davlat bilan bir qatorda nodavlat tashkilotlar, turli jamg'armalar hamda fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etmoqda.

Davlatning ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagidardan iborat:

- aholining hayot darajasini oshirish;
- samarali ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish;

- aholini ish bilan ta'minlanishini nazorat qilish;
- migratsion jarayonlarni nazorat qilish;
- nafaqa tizimini takomillashtirish;
- tibbiy xizmat va ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra ijtimoiy siyosiy faoliyat eng qadimgi davrlarda shakllanib, rivojlangan. Ibtidoiy jamoa tuzimi davrlaridanoq juda oddiy bo'lsada himoya funksiyalari o'rnatilgan. U oddiy insonlarning axloqida shakllanib, avloddan avlodga o'tib borgan. Bu himoya funksiyalari ijtimoiy himoyaga muhtoj guruxlar – bolalar, kasallar va keksalarga qaratilgan bo'lgan. Albatta, bu jarayonga oddiy ishlab chiqarish, past samaradorlik, amaldagi patriarxal munosabatlar, urug'lar o'rtasidagi tarqoqlik va boshqalar salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu davr odamlarining ijtimoiy himoyasi o'z-o'zini asrash instingiga asoslangan bo'lgan. Bu jarayon turli xalqlarda turlicha kechgan.

Misol uchun eskimoslar keksalar va kasalmand bolalar taqdiriga e'tiborsizlik bilan qaragan va uni yaratganning hukmiga tashlab qo'yilgan. Ayna usha davrdagi indeyslar esa keksalarni ulug'lab, ularga xatto-ki, sig'inganlar.

Qadimda ijtimoiy himoya funksiyalari oila tomonidan bajarilgan bo'lib, umume'tirof etilgan axloqiy tamoyillarga asoslangan. Agar odam yaqinlarini yo'qotsa, bu vazifalar davlat, cherkov va vatandoshlar tomonidan bajarilgan.

Tarixiy nuqtai-nazardan Qadimgi-yaxudiy davlatidagi ijtimoiy siyosat o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Bu jamiyatda kambag'allar, bemorlar, nogironlar o'rtasida hamdardlik tuyg'ulari bo'lgan va ijtimoiy himoya faqat mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganlarga ko'rsatilgan. O'z navbatida, mehnatga layoqatli, sog'lom odam ijtimoiy yordam olsa qattiq jazolangan.

Qadimgi Gresiyada gumanitar-demokratik xarakterdagi ilk qonunlar yaratil, qonunga ko'ra, ota-ona o'z farzandlarini kasb-hunarga o'rgatish, qandaydir mehnat faoliyatiga tayyorlashi majburiy edi. Shu bilan bir vaqtda Qadimgi Gresiyada antigumanitar qonunlar ham bo'lgan. Masalan, nogiron bolalarni qoyadan pastga tashlab yuborilgan.

Tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirib, mazkur davrga xos bo'lgan quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mehnat unumdorligining past darajada bo'lishi hamda aholining keng qatlamlari orasida kambag'allikning tarqalganligi;
- davlatning ijtimoiy sohani tartibga solish va boshqarishdagi faol hamda sezilarli rolining kuchayishi;
- ijtimoiy himoya tizimiga oid kasbiy uyushmalar va birlashmalarning dastlabki shakllari yuzaga kelishi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish tizimini shakllantirishning dastlabki bosqichi yuzaga keldi. Bu davrda Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy muhofaza sohasiga oid qator qonunlar ishlab chiqilib, ularda ijtimoiy sug'urta masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur choralar aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qildi.

XX asrning 30-yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz Yevropa mamlakatlari hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ishsizlik ortdi, aholi daromadlari kamaydi va yashash sharoitlari yomonlashdi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida Yevropa davlatlari hamda AQShda aholining turmush darajasini o'rganishga qaratilgan ilmiy yo'nalishlar va maktablar shakllantirildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'plab mamlakatlarda yagona ijtimoiy ta'minot tizimi shakllandi. Bu tizim jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olib, ijtimoiy yordam ko'rsatish, bepul tibbiy xizmatlarni tashkil etish va umumiy farovonlikni oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarda ijtimoiy siyosatda davlatning roli yanada kuchaydi.

Mazkur tarixiy jarayonlarni umumlashtirib, ushbu davrga xos xususiyatlar sifatida mehnat unumdorligining pastligi, aholining keng qatlamlari orasida qashshoqlikning mavjudligi, davlatning ijtimoiy siyosatdagi faol ishtiroki hamda ijtimoiy himoya sohasiga oid kasbiy uyushmalarning dastlabki shakllari yuzaga kelganini ko'rsatish mumkin.

Turli mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimi ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq holda shakllanadi. Samarali ijtimoiy himoya tizimi

zamonaviy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim belgisi hisoblanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda aholi turmush darajasi oshib boradi, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'ladi va uning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yetakchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosatning asosiy vazifasi jamiyatda muvozanat va barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aholining hayot darajasini oshirish, samarali ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, migratsiya jarayonlarini tartibga solish, pensiya tizimini takomillashtirish hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urta tizimlarini rivojlantirish kiradi.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosat insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini kengaytirish, fuqarolar uchun minimal yashash darajasini kafolatlash hamda ularning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy yordam tizimi takomillashtirilib, uning manzilliligi oshirilmoqda, kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Pensiya, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlaridagi yangilanishlar aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlari ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni yanada qulay va shaffof qilmoqda.

Biroq, ushbu sohada ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, ijtimoiy yordamning to'liq manzilliligini ta'minlash, norasmiy bandlikni qisqartirish hamda hududlar o'rtasida ijtimoiy xizmatlar sifati tafovutini kamaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu muammolarni hal etishda raqamlashtirishni kengaytirish, mehnat bozorini tartibga solish va ijtimoiy xizmatlarni bir xil darajada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Ijtimoiy himoya tizimi tarixan jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, bugungi kunga kelib davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biriga aylangan. Dastlab u asosan ijtimoiy sug'urta va minimal kafolatlar tizimi sifatida rivojlangan bo'lsa, keyinchalik "farovon davlat" konsepsiyasi asosida keng qamrovli va universal xarakter kasb etdi.

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya nafaqat ijtimoiy tengsizlikni yumshatish vositasi, balki inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi samarali ijtimoiy siyosat institutsional mustahkamlik, shaffof boshqaruv va raqamlashtirilgan tizimlarga asoslanishini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, manzillilikni oshirish, kambag'allikni qisqartirish va bandlikni kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Biroq norasmiy bandlik, hududlararo tafovutlar va xizmatlar sifatidagi farqlar kabi muammolar tizimni yanada takomillashtirish zaruratini saqlab qolmoqda.

Umuman olganda, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan bir qatorda uning institutsional salohiyati va ijtimoiy adolat tamoyillarini qay darajada ta'minlay olishi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- [1] Esping-Andersen G. *The Three Worlds of Welfare Capitalism*. Princeton University Press, 1990.
- [2] Titmuss R. *Essays on the Welfare State*. Allen & Unwin, 1958.
- [3] O'zbekiston Respublikasi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026".
- [4] International Labour Organization (ILO). *World Social Protection Report*.
- [5] World Bank. *Social Protection Report*.
- [6] UNDP. *Human Development Report*

YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

